



ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIL MADHI

Dilnoza Nazarova

O'z DJTU 2-bosqich talabasi

Tel: +998937588833

E-mail: studentkajahontillari@gmail.com

umirzakovnadilnoza@gmail.com

Ilmiy rahbar: Zafar Nurmatovich Abdusamadov O'zDJTU Ingliz tili 3-fakulteti dekani f.f.f.d.,PhD

Annotatsiya: O'zbek tili necha yuz ming yillardan beri beqiyos qirralarini ochishdan to'xtov bilmayapti. Til shu darajada bemakonki, uni qancha o'rganganingiz sayin bilmagan narsangiz ko'pligini anglab yetaverasiz. Buning isboti sifatida aytishimiz mumkinki, o'zbek tilining asoschisi, mukammal targ'ib qilgan shaxs va davlat arbovi bo'lgan mir Alisher Navoiy ham bu sarhadni yengib o'ta olmadi, ammo tilning eng yorqin nuqtasini ochib berdi va takomillashtirdi. U o'zining asarlarida tilni madh etdi, tilni ulug'ladi, tilga o'zbek tilida bor barcha go'zal so'zlar bilan ta'rif berdi. U o'zbek adabiyotining chinakam ustasi va boshlovchisi edi.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, nazariya, til, shaxs va ruh tushunchasi, til mohiyati, she'riyat, ma'no.

KIRISH

Har qaysi millatning kelajagini oldindan ko'rsata oladigan, uning taraqqiyotida ulkan ahamiyat kasb etadigan birdan bir narsa bu o'sha millatning badiiy tili hisoblanadi. Til ustuvorligi, til madaniyaati yuksak jamiyatning har bir bo'lagi, negizi va bo'g'ini mustahkam bo'ladi. Adabiy tilni shakllantirishda, uni butun dunyoga tanitishda va madh etishda mutafakkirlarning o'rni beqiyos. O'zbek adabiyotining ham shu kabi asoschisi – Alisher Navoiy hisoblanadi. O'z vaqtida mir Alisher Navoiy tilimizni butun olamga ovoza etdi, uning qaysidir ma'noda qolipini tuzib berdi.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Buyuk shoir va adib, ulug' mutafakkir olim Alisher Navoiyning adabiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatida, umuman tillarda, ona adabiyotga bo'lgan cmuhabbat va uni madh etish birlamchi o'rin egallaydi. U deyarli barcha asarlarida o'zi ning til haqidagi qarashlarini, ona tilini rivojlantirish, uning boyligi va go'zalligi haqidagi, o'z xalqini ana shu tilda yozilgan g'oyaviy-badiiy yuksak asarlardan bahramand etish haqidagi g'oyalarini, fikr-mulohazalarini bayon etadi. Umrining oxirida esa o'zinin g shu sohadagi asarlarini sarhisob qilib, umumlashtirdi hamda ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'zbek adabiyotida katta qiymatga ega bo'lgan , „Muhokamat ul-lug'atayn” („Ikki til muhokamasi”) asarini yozib qoldirdi.

Navoiyning lisoniy qarashlaridan eng muhimlari tilning kelib chiqishi, uning ijtimoiy mohiyati, til va tafakkurning masalalari, mazmun bilan shakl birligi, ruh va shaxs tushunchalari, adabiy tilning ijtimoiy taraqqiyoti kabilardir.

„Muhokamatul-lug'atayn” asari dastlab so'z ta'rifi bilan boshlanadi: so'z go'yo durdur. Durnining joylashish o'rni dengiz tubi bo'lsa, so'zning joylashishi o'rni ko'ngildir. Agar dur g'avvos yordamida dengiz tubidan tashqariga chiqarilib, jilvalantirilsa va g'avvosning qiymati javharni jilvalantira olish qobiliyatiga qarab belgilansa, so'z sohibi ixtisos tomonidan ko'ngildan tashqariga olib chiqiladi va notiqning qiymati so'z qo'llash mahoratiga, uni jilvalantirish qobiliyatiga qarab belgilanadi. Dengiz qa'rida harakatsiz imkoniyat tarzida turgan durlar g'avvos yordamida harakatga keltirilsa, ko'ngil tubidagi imkoniyat tarzidagi so'zlar ham so'zlovchi tomonidan nutqiy jarayonda o'z jilvasini topadi.

Bundan ko'rinadiki, Alisher Navoiy nemis tilshunosi Vilgel'm Gumboldt va shveysariyalik olim F.Sossyurdan ancha oldin til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlagan. Achinarli tomoni shundaki, yaqingacha til bilan nutq munosabati, bu ikki hodisani bir-biridan farqlash nomlari qayd etilgan olimlar lingvistik ta'limotining



asosini tashkil qiladi, deb hisoblab kelinar edi. Endilikda mutafakkirimizning mehnati mevasi o'z natijasini bermoqda.

Navoiyning ushbu asarida bir qator masalalar oldinga surilgan. Jumladan, Navoiyning ikki tildagi lug'atni o'rganar ekan, fors-tojik tilida muqobili bo'lmagan ko'plab o'zbek so'zlarini keltirib o'tadi. Ikki tilni qiyoslar ekan, Navoiy o'zbek tilining so'z yasalish borasidagi boy imkoniyatini namoyish qilib, o'zbek adabiy tilining grammatik me'yorlarini belgilashda ham samarali ishlagan. Bu ixcham grammatik normalar orqali yangi so'zlar hosil qilish, yangi ma'no ifodalashga e'tibor bergan.

Alisher Navoiyning birgina bu asari emas, balki boshqa bir qator ijod namunalari ham til uchun atalgan, barchasida til haqida munozara va muhokamalar olib borilgan, tilning qiyoslanishlari aks ettirilgan. „Lison ut-tayr“ asari ham bir qator til haqidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Navoiyning ushbu asari Fariduddin Attorning „Mantiq ut-tayr“ asariga javob tariqasida yozilgan. Navoiy ushbu asarida ham tilimizning barcha qirralarini yoritib berishga, boshqa tillarda muqobili yo'q so'zlarni ko'plab qo'llash orqali tilimizning naqadar boyligini isbotlab berishga harakat qilgan.

XULOSA

Navoiy dahosining qudrati shunda kuzatiladiki, u o'zining amaliy-badiiy faoliyati bilan turli til, lahja va shevalarga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni umumlashtirdi, muayyan me'yorga solib, sayqallashtirdi. Shu tariqa, yagona adabiy tilga asos solib, uni yuqori cho'qqiga olib chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=alisher_navoiy_%E2%80%93_o%E2%80%98zbek_adabiy_tilini_mumtozlik_darajasiga_ko%E2%80%98targan_siymo-XL9
2. Mirtojiyev M.O'zbek tili semasiologiyasi. . - T.: MIIMT02 80'2, 2010. - 288 b



3. Normatov A. Struktur tilshunoslik:ildizlari va yo'nalishlari. Toshkent: Ta'lim, 2009. - 260b
4. Mirtojiyev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. - Toshkent: O'zMU, 2000.
5. Rasulova, A. M., & Xusanova, M. R. A. (2022). POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 807-811.

